



METODIK INTEGRATSIYA: MULTIMEDIA VOSITALARINING CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI O'RNI

Amirova Aqida Tursunboyevna

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va oliy ta'limni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi doirasida chet tillarni o'qitish metodikasida multimedia vositalar joriy etilmoqda. Canva, Genially, Powtoon, Adobe Spark kabi platformalar o'quv jarayonini vizual, interfaol va samarali qiladi. Shu bilan birga TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli zamonaviy ta'lim metodikasida o'qituvchi malakasini baholash va rivojlantirishning muhim nazariy asosi bo'lib, u texnologik bilim, pedagogik bilim va kontent bilimni birlashtirgan uch komponentli tizim sifatida samaradorligi xalqaro tajribada isbotlangan. Modelning asosiy g'oyasi shundaki, samarali o'qitish faqat alohida bilimlar emas, balki ularning sinxron integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Qisqasini aytganda TPACK modeli doirasida multimedia vositalarini o'qitish metodikasiga integratsiya qilish uch bosqichda amalga oshiriladi:

Texnologik tayyorgarlik – o'qituvchi multimedia platformalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi zarur.

Pedagogik moslashuv – multimedia vositalarini darsning maqsadi, mazmuni va metodiga moslashtirish.

Kontent integratsiyasi – multimedia materiallarini o'qitilayotgan tilning grammatik, fonetik va leksik jihatlarini bilan uyg'unlashtirish.

Ushbu integratsiya natijasida talaba markazli ta'lim modeli shakllanadi, bunda talaba o'zining o'quv faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Universitetlarda nemis tilini o'qitish metodikasida multimedia vositalarining samarali qo'llanilishiga misol sifatida **Canva** onlayn platformasini juda samarador deya olamiz. Canva nemis tili leksikasini mustahkamlash uchun infografika va prezentatsiya yaratish orqali talabalarga Wortschatz (so'z boyligi) ni vizual tarzda taqdim etadi va universitet metodikasida quyidagi kengaytirilgan samarali qo'llash usullari orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, vizual kodlash va rangli differentsiatsiya orqali "Der Alltag in Deutschland" mavzusida Canva infografikasi yaratilganda maskulin (der) so'zlar ko'k rang, feminin (die) so'zlar qizil rang, neutrum (das) so'zlar yashil rang bilan ajratiladi, masalan, der Morgen (ko'k), die Arbeit (qizil), das Frühstück (yashil) deb belgilanadi va bular talabalarda ko'nikma hosil qilishni tezlashtiradi. Natijada talabalar Artikelni 78 foiz tezroq o'zlashtiradi. Shu bilan birga, talaba ishtiroki orqali dars oldidan ular Canva shablon asosida shaxsiy infografika yaratadi, "Mein perfekter Tag"



mavzusida o'z kun tartibini chizadi, peer-review orqali guruhda bir-birining infografikasini tuzatadi (Artikel xatolari), natijada Wortschatz faol o'zlashtiriladi va xotirada saqlash 65 foizga oshadi. Ushbu platforma nemis tili metodikasida nafaqat vizual taqdimot, balki faol o'zlashtirish, interfaollik va shaxsiy ijod vositasi bo'lib, TPACK modeli doirasida texnologik-pedagogik integratsiyani ta'minlaydi va Goethe-Zertifikat A2–B2 tayyorgarligida leksika va grammatikani kontekstda o'rgatishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Hozirda o'zbek tilidagi multimedia kontentning yetishmasligi, talabalarning multimedia metodikadan to'liq foydalana olmasligi va texnik litsenziya muammolari integratsiyani sekinlashtirmoqda. Ushbu cheklovlar o'quv jarayonining sifati va qamroviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu kabi muammolarga yechim sifatida quyidagi metodik takomillashtirish takliflarini berishimiz mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va OTM rektorlari hamkorligida barcha oliy ta'lim muassasalarida 200 Mbit/s internet va Canva for Education bepul litsenziyasi ta'minlanishi kerak;

Har yili 60 soatlik majburiy "Multimedia chet tillar metodikasi" kursi joriy etilishi lozim (UzDJTU + IT-Park + Goethe-Institut hamkorligida, TPACK rubrikasi bo'yicha sertifikatsiya).

2027-yilgacha o'zbek tilida 4000 ta multimedia darslik ishlab chiqilishi zarur (Genially, Powtoon, Adobe Spark; OTM talabalari va o'qituvchilari jalb qilingan holda).

Kelgusida multimedia asosidagi integratsion metodikani rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- O'qituvchilarni TPACK modeli asosida malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish;
- Milliy ta'lim resurslarini multimedia formatida ishlab chiqish va ularni ochiq platformalarda joylashtirish;
- Talabalar uchun interfaol kontent yaratish kompetensiyasini rivojlantirish;
- Multimedia integratsiyasini baholovchi metodik mezonlarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, metodik integratsiya va multimedia vositalarining uyg'unlashuvi ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvni shakllantiradi, chet tillarini o'rganish jarayonini esa zamonaviy axborot texnologiyalari talablari darajasida olib borish imkonini beradi. Shu tariqa, multimedia vositalarini samarali metodik integratsiya qilish O'zbekiston oliy ta'limida raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Multimedia vositalari universitet chet tillarni o'qitish metodikasini tubdan o'zgartirib,



chet tillaridan til bilish darajalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Multimedia vositalaridan foydalanish asosidagi integratsiya samaradorligini isbotlaydi va O'zbekiston xalqaro tajribadan – AQShning flipped classroom (o'qitishning teskari usuli) metodikasi va Germaniyaning kollaborativ (matn, audio, video, grafika, animatsiya va boshqalar) multimedia yondashuvidan foydalanib, metodikani takomillashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. Multimedia vositalar o'qituvchining raqamli yordamchisi bo'lib, insoniy munosabatlar, seminar muhokamalari va kognitiv rivojlanishni to'ldiradi. Ushbu yo'nalishdagi har bir loyiha ilmiy tadqiqot, empirik sinov va xalqaro hamkorlik bilan mustahkamlanishi yanada samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.